

YUSUF XOS HOJIBNING NOZIK IBORALARNI BERISHDAGI KASHFIYOTI



<https://doi.org/10.5281/zenodo.15639501>

Alimuxamedov Rixsitilla Abdurashidovich,
Toshkent davlat sharqshunolsik universiteti dotsenti,
filologiya fanlari doktori
Toshkent, O'zbekiston,

Annotatsiya: Mazkur maqolada XI asrning mutafakkir shoiri, adib Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asaridagi falsafiy qarashlarni berishdagi o‘ziga xosliklari tahlilga olingan. “Qutadg‘u bilig” o‘z davri uchun jamiyat hayotidagi zarur falsafiy fikrlarni, g‘oyalarni bayon etadi. Ushbu g‘oyalarni berishda adibning so‘z qo‘llash mahorati, o‘z fikrini o‘quvchiga to‘la-to‘kis holda yetkazib berish, unda so‘z qo‘llash kabi masalalar haqida mazkur maqolada fikr yuritiladi. Ishda juftlash orqali yasalgan so‘zlarning ma‘nolari tahlil ostiga olingan.

Kalit so‘zlar: Yusuf Xos Hojib, “Qutadg‘u bilig”dagi falsafiy qarashlar, juft so‘zlar, so‘zlarning o‘z va ko‘chma ma‘nolari.

Аннотация: В статье анализируются уникальные философские взгляды мыслителя и поэта XI века Юсуфа Хос Хаджиба в произведении «Кутадгу билиг». «Кутадгу Билиг» выражает необходимые философские мысли и идеи в жизни общества своего времени. В данной статье рассматриваются такие вопросы, как умение писателя использовать слова для передачи этих идей, способность полностью донести свои мысли до читателя и использование слов при этом. В работе анализируется значение слов, образованных путем парных сочетаний.

Ключевые слова: Юсуф Хос Хаджиб, философские взгляды в «Кутадгу Билиг», двойные слова, прямое и переносное значение слов.

Annotation: This article analyzes the peculiarities of the philosophical views of the 11th century thinker and poet Yusuf Khas Hajib in his work “Kutadgu Bilig”. “Kutadgu Bilig” expresses the necessary philosophical thoughts and ideas in the life of society for its time. This article discusses the writer’s skill in using words in presenting these ideas, the completeness of his thoughts to the reader, and the use of words in it. The meaning of words formed through pairings was analyzed in the work.

Keywords: Yusuf Khas Hajib, philosophical views in “Kutadgu Bilig”, double words, literal and figurative meanings of words.

Yusuf Xos Hojib o‘z davrining buyuk mutafakkirlaridan, shoirlaridan biri sifatida adabiyot, fan tarixida alohida o‘ringa ega. Uning “Qutadg‘u bilig” asarida

adibning butun o'y-qarashlari, falsafiy g'oyalari badiiy tarzda aks ettirilgan. U o'zining qarashlarini badiiy yo'l bilan yetkazib bera olgan ijodkorlardan sanaladi.

“Qutadg‘u bilig” asari XI asr turkiy adabiyotining noyob durdonasi sifatida ababiyotimiz, tilimiz tarixida alohida o‘rniga ega. Unga asarning kirish qismida “Shoxnomai turkiy” nomi ham berilgan. Asar Qoraxoniylar davri turkiy tilli yozma yodgorliklar orasida tilining murakkabligi bilan ajralib turadi. Adib asarda turkiy so‘zlarning sinonim, omonim variantlari, ularning o‘z va ko‘chma ma’nolarini ishlatib, yangi ma’nodagi so‘zlarni hosil qilgan. Asarni o‘qigan o‘quvchi matnni anglash uchun qadimgi turkiy tildagi so‘zlar bilan birga, turkiy tilning o‘ziga xos xususiyati – so‘z yasashdagi, yangi ma’no hosil qilishdagi o‘rnini ham bilishi kerak. Turkiy tillar tarixida Qoraxoniylar davri yozma manbalari tili o‘tish davri yodgorliklari hisoblanadi. Chunki bu davrda qadimgi turkiy tilning fonetik, morfologik va leksik qurumi eski o‘zbek adabiy tili davriga asta-sekinlik bilan moslasha boshlagan. Fonetik sathda tovushlar o‘zgarishi: <d> tovushining tishora <δ> tovushiga o‘zgarishi; leksik sathda so‘zlarning fonetik o‘zgargan shaklining ishlatilishi (edgü<eδgü)ni kuzatishimiz mumkin. Bu boradagi o‘zgarishlarni Qoraxoniylar davri turkiy yozma yodgorliklari bo‘yicha yaratilgan asarlardan batafsil ma’lumotlarni olsa bo‘ladi [1, 2]. Biz “Qutadg‘u bilig” asaridagi juft so‘zlarni tahlil qilishda professor Q.Sodiqov tomonidan tayyorlangan “Qutadg‘u bilig” so‘zligi” (Toshkent, 2020)dan foydalandik [6].

“Qutadg‘u bilig” asarida adib nozik ma’nolarni berishda so‘zlarni juftlash yo‘lini qo‘llagan. Bu hol so‘zlarga qo‘shimcha ma’no yuklashdan ko‘ra o‘zgacha bo‘lib, ikki mustaqil ma’noga ega so‘z bir-biri bilan juftlashib keladi hamda boshqa ma’no hosil qiladi. Hozirgi kunga qadar yaratilgan grammatik asarlarda so‘zlarni juftlash – kompozitsion usulda yasalganda yangi ma’no hosil bo‘lmaydi, deb yozilgan [3, 4-b.]. Shu bilan birga, “tilning taraqqiyot darajasi faqatgina undagi so‘zlarning miqdoriga qarabgina belgilanmaydi, balki turli ma’no va stilistik ottenkalarini ifodalovchi so‘zlarga, o‘zaro aloqada fikrning turli-tuman va nozik ottenkalarini ifodalovchi vositalarga qanchalik boyligi bilan ham belgilanadi. Bu jihatdan qaraganda, o‘zbek tilida juft va takroriy so‘zlar alohida o‘rin tutadi” [3, 4-b.]. Bundan kelib chiqadiki, so‘zlarni juftlash yasovchi qo‘shimchalar singari yangi ma’noni hosil qilmasa ham mazkur so‘zlarning yangi ma’no qirralarini yasaydi. Yasashda ham har ikkala so‘z o‘z ma’nosida yoki juftlashgan holda hosil qilgan ma’nosida qo‘llanishi mumkin. Bunga asardan misollar bilan tushuntirishga harakat qilamiz. Masalan: “farzand” ma’nosida qadimgi turkiy til davri yozma manbalarida *oğul* so‘zi ishlatilgan. Masalan: *urī oğul* – “o‘g‘il bola (o‘g‘il farzand)”, *qiz oğul* – “qiz bola (qiz farzand)”. Misollardagi *oğul* so‘zi “farzand” so‘ziga sinonim. “Farzand” so‘zi asli forschadir. “Qutadg‘u bilig” matnida esa quyidagicha kelgan: “oyul-qiz (اوغول قیز) – o‘g‘il-qiz, farzand: Oyul-qiz esiz bolsa qilqı yañi, / Ol esiz ata qıldı andın öñi. – O‘g‘il-qizning xulq-atvori yaramas bo‘lsa, / Bu yaramas ishni ota qilgan bo‘ladi, undan boshqa emas (QBN.51a,5)” [6, 183-b.]. Misoldan ko‘rinib turibdiki, matndagi *oyul-qiz*ni ikki ma’noda talqin qilish mumkin: birinchisi – “o‘g‘il” va “qiz” ma’nosida; ikkinchisi esa – “farzandlar”

ma'nosida. Bunda qaysi ma'nosini olish matnni o'quvchi qaysi ma'noda idrok etishiga, tushunishiga bog'liq.

Asar matnida adib inson hayotidagi ma'lum payt, holatlarga ishora qiluvchi so'zlar ham uchraydi. Bulardan biri *qara quzyun* juft so'zidir. Asarda quyidagicha keladi: “qara quzyun (قرا قوزغون) – qora quzg'un; poetik ma'noda: yoshlikka ishora: Qara quzyun erdim, quyu qildi, čal. – Qora quzg'un [ya'ni yosh; sochning qoraligiga ishora] edim, oqqush [ya'ni chol; soch-soqolning oqligiga ishora] qildi, chol (qildi) (QBN.46b,5)” [6, 208-b]. Misrada tazod qo'llangan: *qara quzyun* – *quyu*. Insonning yoshligi (majoziy ma'noda) xuddi qora quzg'un – qarg'aga o'xshatilmoqda. Yosh o'tgan sari uning sochi oqaradi, ya'ni *quyu* bo'ladi. Xuddi shu so'z asarning boshqa bir o'rnida – muallifning yoshi to'g'risida gap ketganda ham ishlatiladi. Unda quyidagicha yozadi:

“(333) Tegürdi menä elgi elik yašim,
Quğu qildi quzğun busi-teg bašim.

(333) Menga ellik yoshim qo'l tegurdi,

Quzg'un rangidek boshimni oqqush qildi [ya'ni qop-qora soch-soqolim oqardi]” [4, 70,121-b.].

Baytdan ko'rinib turibdiki, adib o'zining yoshini bildirayotganda o'zgacha uslubda matn tuzgan. Bu yerda o'zining qora sochlariga oq oralagani, shu bilan yoshi ulug' bo'lganiga poetik jihatdan ishora qilinmoqda.

Yana bir so'z *kečki-eski* so'zlaridan tuzilgan. So'zlar “kechki” va “eski” so'zlaridan iborat bo'lib, ular vaqti o'tgan degan ma'nosini anglatadi. Qo'shilgan holatda esa tajribaga ega, ko'pni ko'rgan sifatida tarjima qilish mumkin. Masalan: “kečki-eski (كيجكى اسكى) – juft. kechki-eski; tajribali, ko'pni ko'rgan: Muñar kečki-eski tapuyčï keräk, / Ačïnu-süčïnü ašïn bersä terk. – Bunga kechki-eski [ya'ni tajribali, ko'pni ko'rgan] xizmatchi kerak, / Achchiq-chuchugini tatib ko'rib, tezda ovqatini bersa (QBQ.83b,7–8)” [6, 155-b].

Yuqoridagi so'zga o'xshash yasalgan yana bir so'zni otalar so'zi, maqol sifatida talqin qilish mumkin: “kečki söz (كيجكى سوز) – ta'bir; maqol; matal: Eđi kečki söz-ol, masalda kelir: / “Ata ornï, atï oyulqa qalïr”. – Masalda keladigan juda eski ta'bir bor: “Otaning o'rni (va) oti o'g'ilga qoladi” (QBN.11a,12)” [6, 155-b.]. Ushbu juft so'zning ma'nosini “maqol” ekanini ikkinchi misrada kelgan maqol ham ta'kidlamogda.

“Qutadg'u bilig” asari matnida uchragan yana bir so'z *suw* so'zi bilan bog'liq. Ushbu juftlashgan so'zlarda suv bilan bog'liq biror ma'no anglashilmaydi. Ushbu ma'noni anglash uchun matn kontekstini tushunish, ma'nosini yaxshilab tahlil qilish kerak: “yüz suwï (يوز سفي) – izzat-obro': Bayat kimkä bersä owut, köz suwï, / Anjar berdi davlat, tügäl yüz suwï. – Xudo kimga uyat-andisha va fazilat bersa, / Unga davlat va tugal izzat-obro' beradi (QBN.77b,15)” [6, 152-b]. Ayni baytda *köz suwï* juft so'zi ham qo'llangan. Uning ma'nosi ham matn kontekstidan kelib chiqadi: “köz suwï (كوز سفي) – fazilat: Bayat kimkä bersä owut, köz suwï, / Anjar

berdi davlat, tūgāl yüz suwī. – Xudo kimga uyat-andisha va fazilat bersa, / Unga davlat va tugal izzat-obro' beradi (QBN.77b,15)" [6, 169-b.].

Xuddi shunday komponentdan tuzilgan juft so'ziga qo'shimchalar qo'shilishi oqibatida shaxs xususiyatiga aylanadi: "yūzi suwluy (يوزى سؤلۇغ) – yuzi suvli; ya'ni: obro'li: Nečā qīzyu enlig, yūzi suwluy er, / Tišilärdä ötrü yūzi boldi yer. – Necha yorug' yuzli, obro'li kishi(lar) / Xotinlar tufayli yuzi yer bo'ldi [ya'ni yuzi yerga qaradi] (QBN.164a,3)" [6, 152-b.]. Ushbu juft so'zning ma'nosi avvalgisiga nisbatan biroz farqli – egalik qo'shimchasi -i + -luğ qo'shimchalari orqali xususiyat, sifatning shaxsga tegishlilikini bildirimoqda.

Asardagi yana bir falsafiy tushunchani ifodalash uchun adib quyidagi juft so'zdan foydalangan: "tūgāl er (توگال ار) – fals. tugal er, komil inson: Bu iki biriksä, bolur er tūgāl, / Tūgāl er aẓunuy tamām yer tūgāl. – Bu ikkisi [ya'ni zakovat va bilim] biriksa, er tugal [ya'ni mukammal] bo'ladi, / Tugal er [ya'ni komil inson] dunyoni butunlay qo'lga kiritadi (QBN.15a,15)" [6, 277-b.]. Juftlashgan so'zning qo'shilmasidan mukammal er ma'nosini anglasa bo'ladi. Juft so'zga berilgan izohda ham ayni ma'no ifodalangan – ya'ni komil inson ma'nosi.

Asardagi yana bir o'ziga xos bo'lgan juft so'zlardan biri – *kökčün saqal* so'zidir. Uning ma'nosini aniqlash uchun to'liq matnga murojaat qilish kerak: "Kökčün saqal (كوكجين سقال) – qariya, oqsoqol, mo'ysafid: Nekü ter eşit emdi kökčün saqal, / Uqa bar munī sen, turu qalma, qal. – Mo'ysafid nima deydi, eshit, / Buni sen uqib bor, bexabar qolma, qol (QBN.168a,5)" [6, 164-b.]. Matndan ushbu so'zning *qariya*, *ko'pni ko'rgan mo'ysafid* ma'nolarni anglashilmoqda. *Kökčün* so'ziga lug'atda "oq oralagan" (седой) ma'nosi berilgan [5, 313-b.]. Juftlashgan so'zda qariya yoki yosh katta insonga nisbatan biror belgi yo'q. Oq oralagan soqol yoshda ham, qariyada ham bo'lishi mumkin.

Yuqoridagi tahlillardan xulosa qilish mumkinki, juftlashish orqali yasalgan so'zlar faqatgina o'z ma'nosida emas, balki har ikkala so'zning ma'nosi qo'shilgan holda ham yangi ma'no hosil qiladi. Lekin bu o'rinda so'z yasovchi qo'shimcha singari yangi ma'no hosil qilinmaydi. So'zlarning ma'no uyasidan uzoqlashilmaydi, yangi xususiyatga ega ma'nodagi so'z hosil qilinadi. Bu o'rinda so'zning ko'chma ma'nosi ham qatnashib, ma'nosi kengayishi yoki o'zgarishi mumkin. Demak, so'zlarni juftlash orqali yangi ma'no hosil qilish bilan tilning lug'at boyligini oshirish, shu bilan birga, tilning ichki imkoniyatlaridan foydalanib nozik fikrlar, his-tuyg'ularni ifoda etish ancha osonlashadi. Bu o'rinda Yusuf Xos Hojibning tutgan yo'li juda to'g'ri va asosli sanaladi. Hech ikkilanmasdan adibning bunday yo'l tutishini kashfiyot desa bo'ladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

[1] Sodiqov Q. Qoraxoniylar davri turkiy yozma yodgorliklari tili. – Toshkent: Akademnashr, 2025. – 360 b.

[2] Hacıeminoğlu N. Karahanlı Türkçesi Grameri. – 3. bsk. – Ankara: Türk Dil Kurumu, 2008. XXIII, 214 s.

- [3] Ҳожиёв А. Ўзбек тилида қўшма, жуфт ва такрорий сўзлар. – Тошкент: 4-б.
- [4] Содиқов Қ. “Қутадғу билиг”нинг уйғур ёзувли Ҳирот нусхаси. – Тошкент: ТДШУ, 2010. – 70, 121-б.
- [5] Древнетюркский словарь. – Ленинград: Наука, 1969. – С.313.
- [6] “Қутадғу билиг” сўзлиги [Матн]. Илмий-оммабоп нашр / Қ.Содиқов. – Тошкент: Akademnashr, 2020. 304 б.